

AYOLLAR SPORT USLUBIDAGI KIYIMNI TIKISH TEXNOLOGIYASI VA BOSQICHLARI

Rayimova Shabnam Akrom qizi

Forish tuman texnikumi Ishlab chiqarish ta'lim ustasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollar sport uslubidagi kiyimlarini loyihalash va tikish jarayonining texnologik ketma-ketligi yoritilgan. Sport kiyimlariga qo‘yiladigan gigiyenik va estetik talablar, mato tanlash xususiyatlari hamda tikuvchilik mahsulotini sifatli tayyorlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

Annotation: This article describes the technological sequence of the process of designing and sewing women's sportswear. Hygienic and aesthetic requirements for sportswear, features of fabric selection, and methodological recommendations for high-quality preparation of sewing products are provided.

Аннотация: В данной статье описывается технологическая последовательность процесса проектирования и пошива женской спортивной одежды. Приведены гигиенические и эстетические требования к спортивной одежде, особенности выбора ткани, методические рекомендации по качественному изготовлению швейных изделий.

Kalit so‘zlar sport uslubi, ayollar kiyimi, bichish, tikish texnologiyasi, trikotaj mato, konstruksiya, ishlab chiqarish ta’limi.

Keywords sports style, women's clothing, cutting, sewing technology, knitwear, construction, industrial education.

Ключевые слова спортивный стиль, женская одежда, раскрой, технология пошива, трикотаж, конструкция, производственное обучение.

KIRISH

Zamonaviy moda olamida sport uslubidagi kiyimlar nafaqat jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish uchun, balki kundalik hayotda ham eng qulay va ommabop kiyim turlaridan biriga aylandi. Ayollar sport kiyimlari harakat erkinligini ta’minlashi, qulay bo‘lishi va shu bilan birga zamonaviy dizaynga ega bo‘lishi lozim. Ishlab chiqarish ta’limi ustasi sifatida talabalarga ushbu turdagi kiyimlarni tikishni o‘rgatishda nafaqat chok turlarini, balki mato xususiyatlarini va texnologik ishlov berish sirlarini mukammal egallash muhim hisoblanadi. Maqolada ayollar sport kiyimini tayyorlashning o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqiladi.

ASOSIY QISM

Ayollar sport kiyimini tikish jarayoni bir necha muhim bosqichlardan iborat bo‘lib, birinchi navbatda mato tanlashga alohida e‘tibor qaratiladi. Sport uslubidagi kiyimlar uchun asosan elastan aralashgan trikotaj (fukur, suprev, bifshteks) matolari tanlanadi. Ushbu matolar namlikni yaxshi o‘tkazishi, havoni aylantirishi va bir necha marta yuvilgandan keyin ham o‘z shaklini yo‘qotmasligi bilan ajralib turadi.

Tikish texnologiyasi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:



1. Loyihalash va andoza tayyorlash. Ayol qomati o‘lchamlariga mos ravishda asos andozalar chiziladi. Sport kiyimlari uchun "oversize" yoki yarim yopishib turuvchi siluetlar tavsiya etiladi.

2. Bichish jarayoni. Mato bo‘ylama ip yo‘nalishi bo‘yicha taxlanadi va andozalar qo‘yib chiqiladi. Bunda chok haqlari matoning cho‘ziluvchanligiga qarab 0,7 santimetrdan 1 santimetrgacha qoldiriladi.

3. Bo‘laklarni birlashtirish. Sport kiyimlarini tikishda asosan maxsus to‘rt ipli overlok mashinalaridan foydalaniladi. Bu choklar ham birlashtiruvchi, ham qirqimni tozalovchi vazifani bajarib, matoning cho‘zilishiga chidamlilik beradi.

4. Detallarga ishlov berish. Cho‘ntaklar (yashirin yoki ustma-ust), kapyushon va manjetlarni birlashtirishda choklarning tekisligi va mustahkamligiga e‘tibor beriladi.

Ishlab chiqarish ta‘limi jarayonida talabalarga sport kiyimining yoqa qismi va etak qismlarini raspoloshivalka (yassi chokli) mashinasida ishlov berish texnikasi o‘rgatiladi. Bu nafaqat kiyimning chiroyli ko‘rinishini, balki uning funktsionalligini ham oshiradi. Shuningdek, zamonaviy sport kiyimlarida furnituralar (zamok, rezinasi, iplar) tanlash va ularni to‘g‘ri o‘rnatish mahsulot sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

XULOSA

Ayollar sport uslubidagi kiyimni tikish yuqori darajadagi texnologik bilim va aniqlikni talab qiladi. Mato xususiyatini to‘g‘ri tahlil qilish va tikuv mashinalaridan unumli foydalanish natijasida sifatli va bozorbop mahsulot tayyorlash mumkin. Ishlab chiqarish ta’limi ustasi sifatida asosiy vazifamiz talabalarga kiyimning nafaqat tashqi ko‘rinishini, balki uning ichki choklari va konstruksion mustahkamligini xalqaro standartlarga mos ravishda bajarishni o‘rgatishdan iborat. Bu esa kelajakda malakali mutaxassislar yetishib chiqishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alimova X.A. Kiyim tayyorlash texnologiyasi Toshkent 2014.
2. Rasulova M.G‘. Kiyim konstruksiyalash Toshkent 2012.
3. Olimov K.T. Kasbiy ta’lim metodikasi Toshkent 2006.
4. Shvab Ye.V. Shveynoye proizvodstvo Moskva 2010.
5. Jabborova M. Tikuvchilik texnologiyasi Toshkent 2004.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat standarti (GOST) Tikuvchilik buyumlariga qo‘yiladigan umumiy texnik talablar.